

## Rojiy Marg'inoniy (1834-1918)



# Rojiy Marg'inoniy (1834-1918)

Rojiy Marg'iloni (taxallusi; asl ism-sharifi Xo'jajon Xo'ja Nizomiddin Xo'ja o'g'li, 1834 — Marg'ilon — 1918) — shoir. Qo'qon va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Xushxat va savodxon bo'lganligi uchun mirzalik qilgan.

Shoirning adabiy meroasi 10 ming misraga yaqin: ular g'azal, muxammas, masnaviy, muammo, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, ta'rix kabi adabiy janrlarda bitilgan. Rojiy lirik she'rlarida pok insoniy sevgini, olijanob fazilatni ulug'laydi, zulm vaadolatsizlikdan noliydi. «Qozi saylov», «Saylov» hajviyalarida amaddorlarni, poraxo'r qozilarni tanqid qiladi, o'z davri sayloving mohiyatini ochib beradi. «Toy», «Toychoq» kabi masnaviyalarida mustamlakachilik zulmi ostida qashshoqlashgan xalqning turmushini, ochlik, muhtojlik hukm surayotgan muhitni qoralaydi. Rojiy Dukchi eshon voqeasi haqida ham she'rlar yozgan.

Hofiz, Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Nodira va Furqat kabi shoirlarning g'azallariga nazira va taxmislari bitgan.

2023-09-06 22:33:34